



THE GENDER ISSUE AND THE HISTORY OF ITS EMERGENCE

Laylo Oripova

Senior Lecturer with an Academic Degree

Department of the History of Uzbekistan

Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: gender, equality, social roles, evolution, gender policy, Uzbekistan, history.

Received: 11.12.25

Accepted: 12.12.25

Published: 13.12.25

Abstract: This article explores the historical formation of the gender issue and examines its social, cultural, and philosophical foundations. The author traces the evolution of male and female roles from ancient societies to the modern era. The study highlights the emergence of gender equality ideas during the European Enlightenment and their transformation into major socio-political movements of the 20th century. Furthermore, the article analyzes the development of gender policy in Uzbekistan and its specific features rooted in national traditions and cultural values. The research findings contribute to a deeper understanding of how gender issues have evolved and been reflected in social consciousness.

GENDER MASALASI VA UNING VUJUDGA KELISHI TARIXI

Laylo Oripova

O'zbekiston tarixi kafedrası ilmiy darajali katta o'qituvchisi

Qarshi davlat universiteti

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: gender, tenglik, ayol va erkak rollari, ijtimoiy evolyutsiya, gender siyosati, O'zbekiston, tarix.

Annotatsiya: Mazkur maqolada gender masalasining tarixiy shakllanishi, uning ijtimoiy, madaniy va falsafiy ildizlari tahlil qilinadi. Muallif qadimgi jamiyatlardan boshlab hozirgi davrgacha bo'lgan davrda erkak va ayol rollarining o'zgarish dinamikasini ilmiy asosda yoritadi. Maqolada

gender tenglik g'oyalarining Yevropa ma'rifatparvarlik davridan boshlab shakllanishi, XX asrda esa ularning ijtimoiy-siyosiy harakatlar darajasiga ko'tarilishi tarixiy manbalar asosida o'rganiladi. Shuningdek, O'zbekiston jamiyatida gender siyosatining rivojlanish bosqichlari va milliy an'analarga asoslangan xususiyatlari ham tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari gender muammosining ijtimoiy ongda o'z aksini topish jarayonlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

ГЕНДЕРНАЯ ПРОБЛЕМА И ИСТОРИЯ ЕЁ ВОЗНИКНОВЕНИЯ

Лайло Орипова

Кафедра истории Узбекистана

Старший преподаватель, имеющий ученую степень

Каришинский государственный университет

Кариши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гендер, равенство, социальные роли, эволюция, гендерная политика, Узбекистан, история.

Аннотация: В статье рассматривается история возникновения и развития гендерной проблемы, анализируются её социальные, культурные и философские основы. Автор прослеживает эволюцию ролей мужчин и женщин от древних обществ до современности. Особое внимание уделено формированию идей гендерного равенства в эпоху европейского Просвещения и их трансформации в общественно-политические движения XX века. Также исследуется развитие гендерной политики в Узбекистане, её связь с национальными традициями и культурными ценностями. Результаты исследования позволяют глубже понять процессы формирования общественного сознания в контексте гендерных отношений.

Kirish. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, an'analar, buyuk hayot maktabi va dasturilamal bo'lgan ajdodlarimizning ma'naviy morosi hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari asosida jamiyatda ijtimoiy adolatni tiklash, xususan, tender tengligi tamoyilini ro'yobga chiqarish tamaddunlar taraqqiyotining muhim garovidir.

Gender tengligi masalasi jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, millatlar, davlatlar, madaniyat va sivilizatsiyalar bilan uzviy aloqada. Bu masalaning yuzaga kelishi, rivojlanishi ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishi bilan ham bog'liqdir.

Asosiy qism. Gender (gender) – ijtimoiy jins degan ma'noni anglatadi. Ingliz tilida gender (gender) – ijtimoiy jins va biologik jins tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tushunchasi feminizmning nazariy rivojlanishi jarayonida, keyinchalik esa bevosita gender tadqiqotlari doirasida shakllangan [1, b.41].

Olimlar gender masalasini jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda tahlil qilish natijasida kishilarning ijtimoiy birligi, jamiyat bo'lib yashashi uchun zarur bo'lgan oila, urf-odat, madaniyat, xalqaro va sivilizatsiyalararo munosabatlar, din, mehnat va jamoat tashkilotlariga uyushish katta ahamiyat kasb etishini ilmiy ifodalaganlar. Gender g'oyasigacha o'tish evolyutsiyasi mobaynida quyidagi ijtimoiy-tarixiy bosqichlar bosib o'tildi.

Tarixiy manbalar aynan ayolni insoniyat madaniyatining asoschisi deb atashadi. Haqiqatan ham mehnatning ibtidoiy jamoa tuzumida taqsimlanishiga qarab erkaklar ov qiluvchilar, ayollar esa hosil yig'uvchilar vazifasini bajarganlar. Faqat ayolgina yerdan to'yimli o'simlik ildizlarini, inlardan mayda jonivorlarni, hashoratlar lichinkasini qazib olish bilan mashg'ul bo'lgan.

Qadimda ayollar olovning xususiyatlarini o'rganish, uni turmushda qo'llash, uyni isitish, ovqat tayyorlash kabi zarurlarni bajarganlar. Kiyim-kechak va oyoq kiyimlarini ham ayollar kashf etishgan [2, b.109-110].

Matriarxat davrida ayollarning mavqei yuqori bo'lgan. Ayol asosiy ishlab chiqaruvchi kuch, ro'zg'orni muhofaza qiluvchi, bola tarbiyalab, avlodning ko'payishini ta'minlovchi zot hisoblangan. Bu esa unga urug', qabila hayotida yetakchilik qilish imkonini bergan. Urug'-aymoqchilik davri ma'budalari ayollar timsolida tasvirlangan, qabilani boshqarish, aybdorlarni jazolash, hatto boshqa qabilalar ustiga qo'shin tortish ham ayollar ixtiyorida bo'lgan. Ijtimoiy huquqiy nuqtai nazardan bu davrni ilmiy adabiyotlarda "ayol huquqi [1, b.9] hukmron bo'lgan davr deb atashadi. L. Morgan, F. Engels, G.Ploss, E. Teylor asarlarida ona urug'i davri (matriarxat)da ijtimoiy-huquqiy va siyosiy masalalar ayollar qo'lida bo'lganiga ko'plab misollar keltiriladi. Biroq ota urug'i (patriarxat) davriga o'tilishi bilan ijtimoiy-huquqiy muvozanat ayoldan erkak tomonga og'adi va erkak asosiy ishlab chiqaruvchi kuchga, davlatni boshqaruvchiga aylanadi.

XVII asrga kelib G'arb mamlakatlarida sanoatning rivojlanishi ayollar masalasida yangicha qarashni ifodaladi. Insoniyatning tabiiy va ajralmas huquqlari haqidagi g'oyalar J.J.Russo, J. Lokk, Sh.L. Monteskye ilmiy nazariyalarida o'z aksini topdi va 1789 yili qabul qilingan inson va fuqaro huquqlari fransuz Deklaratsiyasida yuridik jihatdan e'tirof etildi. Bu feminizm g'oyasi edi.

Feminizm – xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lishi uchun kurashi, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy kurashda ishtirok etishi ma’nosini anglatadi [3, b.388].

Ijtimoiy-falsafiy adabiyotlarda feminizm bir qancha bosqichlarga bo‘lib o‘rganiladi. Jumladan, ilk feminizm XVIII asrda vujudga kelgan bo‘lib, XIX asr oxirigacha o‘z ta’sirini saqlab qoldi. Bu davrda xotin-qizlar barcha yirik harakatlarda ishtirok eta boshladilar. Fransiyada xotin-qizlarning tenglik uchun kurashiga bag‘ishlangan birinchi jurnali chiqdi, dastlab xotin-qizlar revolyutsion klublari paydo bo‘ldi va ular siyosiy kurashlarda faol qatnashdilar.

XX asrda AQSH Konstitutsiyasi tahrir qilinib, ayollar saylash va saylanish huquqiga ega bo‘ldilar. Bu holat feminizm g‘oyasining yanada kengroq miqyosda tarqalishiga sabab bo‘ldi hamda yangi feministik oqimning vujudga kelishiga sharoit yaratdi [4, b.119].

Yangi feminizm ayollar tengligi uchun kurash g‘oyasini meros qilib, o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarga ham ega. Shartli ravishda yangi feministik oqimning yo‘nalishlarini 3 ga bo‘lib o‘rganish mumkin. Bulardan tashqari, konservativ g‘oyaga ega bo‘lgan – antifeministik yo‘nalish ham mavjud.

Bu davrda asosiy g‘oya – xotin-qizlarning oiladagi tutqunligiga qarshi qaratilgan bo‘lib, endilikda ular siyosiy teng huquqqa ega bo‘lishlari lozim, buning uchun ular ma’lumot olishi, erkaklar bilan barobar ishlashlari, haq olishlarini yoqlab chiqishidan iborat bo‘lgan.

Natija va muhokamar. Konservativ yo‘nalish namoyondalari Z.Freyd nazariyasiga asoslanib, ayollarning oila va onalik vazifasini bajarishi lozimligini mutloqlash-tiradi hamda ayollarning kamsitilishi g‘oyasini inkor qiladi. Ayollarning jamiyatda va oilada yuqori mavqelarni egallashlari ularni farzand ko‘rish, ularni tarbiyalash ekanligini e’tirof etib, ishlab chiqarishda qatnashish ularning faoliyat doirasiga kirmaydi, degan g‘oyani ilgari suradi.

1. Liberal-reformistik oqim – jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar orqali ayollar bilan erkaklarning teng huquqliligiga erishish mumkin, degan nuqtai nazarda bo‘lishgan. Bu oqim namoyondalari angliyalik olim Meri Uolton Kraft, Garriyet Teylor Mill, Jon Styuart Mill kabi feminist olimlar ayollarning tengligi haqidagi nazariyalarga asoslanib, ayollarning erkaklarga huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy qaramligini to‘xta-tish; ayollarning bilim olish, uni doimiy takomillashtirish erkinligini ta’minlash uchun imkoniyatlar yaratish; ayollarning bozor iqtisodiyoti sharoitida teng ishtirok etuvini ta’minlash; bozor sharoitlariga moslashuv jara-yonini tezlashtirish; ayollar mavqeini yuksaltiruvchi qonunlar qabul qilish kabi g‘oyalarni ilgari suradi.

2. Radikal feminizm – bu oqim XX asrning 60 – yillarida AQShda vujudga kelgan bo‘lib, ayrim g‘oyalari bilan liberal feminizmdan tubdan farq qiladi. Ular targ‘ib etgan g‘oya asosida ayollarning tabiiy-biologik tuzilishi yotadi. Radikal feminizm ayollar bilan erkaklar tengligi

g'oyasini inkor etib, hayotda barcha ezilganlarni ozod qilishni targ'ib etadi. Ular quyidagi g'oyalarni ilgari suradi:

3. Ijtimoiy feminizm – bu ayollarni mustabid ijtimoiy tuzilmalardan xalos etishni targ'ib etuvchi va biologik omilni hisobga olmagan holda ayollar mavqeini jamiyatdagi ijtimoiy voqealar hosilasi sifatida o'rganuvchi oqim hisoblanadi [4, b.135].

Bu nazariya sovet davrida amalga oshirilish natijasida sobiq Ittifoq, jumladan, O'zbekistonda ham xotin-qizlarning ishlab chiqarishda ishtirok etishi ta'minlandi va natijada yudan tashqarida erkaklar bilan bab-barobar ishlovchi ayollar qatlami yaratildi.

O'zbekistonda 20-yillar ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarni ozod qilish muammolari alohida o'rin egallagan. Ijtimoiy tashkilotlar bu muammoni xotin-qizlar o'rtasida savodsizlikni tugatish, ularni ijtimoiy hayotga jalb etish orqali hal etishga intilgan. Bu tadbirlar ayollarning oilada emas, balki jamiyatda erkaklar bilan teng asosda faol ishtirok etishini istaydigan butunlay yangi avlodni tarbiyalash uchun xizmat qilgan [5, b.375-376].

XX asr boshlarida Shimoliy Amerika, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Angliya, Germaniya va Avstriyada liberal qonunlar qabul qilindi, ayollar saylovlarda, maktab, litsey va shifoxonalar hayotida ixtiyoriy qatnashish huquqiga ega bo'ldilar. XX asrning o'rtalarida esa ayollar siyosiy huquqqa to'la ega bo'ldilar, ularning siyosiy manfaatlari xalqaro bitimlar va BMTning maxsus bo'limlari orqali himoya qilinadigan bo'ldi.

Jahonda parlamentlarga saylanganlarning 14 foizi xotin-qizlar hisoblanadi [6, b.87]. Vazirlar mahkamalarida esa ular 1995 yilgi ma'lumotga ko'ra 6,8 foizini tashkil etadi. [7, b.207]

Bugungi kunda mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Senatda esa bu ko'rsatkich qariyb 25 foizga yetdi. Mahalliy Kengashlar deputatlarining 31 foizini ham ayollar tashkil etmoqda. O'zbekiston parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-pog'onaga ko'tarildi[8, b.25-32].

Hozirgi davrga kelib falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va sotsiologik qarashlarda erkak va ayollar o'rtasidagi munosabatlar hamda xotin-qizlar masalasiga yangicha yondashish paydo bo'ldi. Jumladan, jinslarning ijtimoiy-lashuvi jarayonida individning ijtimoiy rollari muammolari sifatida oydinlashtirilgan.

Ijtimoiy munosabatlarning asosiy masalalaridan biri bo'lgan inson-ning ijtimoiy mohiyati muammosi gender nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan va bu holat bugungi kunda butun dunyoda keng yoyilgan gender tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Bu g'oyaning ilgari surilishi natijasida umuminsoniy tafakkurda ayollar va erkaklar o'rtasidagi gender tenglikni ta'minlash zaruriyati kun tartibiga qo'yilmoqda, ularning inson huquqlari va imkoniyatlari tengligi-ni kafolatlashga harakat qilinmoqda[9, b.17-18].

Gender g'oyasi ilmiy yo'nalish sifatida feministik g'oyaning nazariyasi va amaliyotining jadal rivojlanishi natijasida vujudga keldi. Mazkur ilmiy oqim rivojlanishining yangi bosqichi XX asrning 80-yillariga to'g'ri keladi. Uning asosiy hususiyati gender tizimi tahlilidir[1, b.40-41].

Ayollar tadqiqotlari, ya'ni "women's studies" asta-sekin gender tadqiqotlariga aylana boshladi. Bunda ijtimoiylik va madaniyatning barcha jihatlari gender o'lchoviga ega bo'lish mumkin degan fikrga asoslangan g'oyalar ilgari surildi. Bunda nafaqat feministik tadqiqotlarning mazmuni, balki tahlil shakli ham o'zgardi.

Jumladan, feminizmga xos bo'lgan ayrim keskin qarashlar o'rniga barcha ijtimoiy jarayonlarda genderning mavjudligi, shakllanishi va qayta tiklanishini anglashga bo'lgan intilish kuchaydi. Gender g'oyasi ayollar muammosini odatdagidan ko'ra kengroq miqyosda tadqiq etishni nazarda tutadi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bunday yondashish "ijtimoiy tarix"dan, "madaniy tarix"ga o'tishga mos keladi. Ayollar to'g'risidagi tadqiqotlar maskulinlik va jinsiylik muammolarini o'z ichiga olgan holda mazmunan yanada kengaydi. Ushbu nuqtai nazardan gender ta'limoti "man's studies" yo'nalishi bilan boyidi.

XX asrning 90-yillarida hokimiyat munosabatlarida gender tengligi qanday darajada ekanligi tahlil etiladi va bunda erkaklar mentaliteti tazyiqini ifodalovchi siyosiy-madaniy istioralar izohlanadi.

Mazkur holatdan kelib chiqib, genderning rasmiy tan olinishi va rivojlanish tendensiyalari dunyoning eng dolzarb muammosiga aylandi.

Eng muhimi, feminist ayollarning xatti-harakati, so'ngra gender va ilm-fan hokimiyat hamda gender o'rtasidagi munosabatlarni ochib berishga qaratilgan nazariyalarni o'rganish zaruriyatini kuchaytirdi.

Ijtimoiy ma'noda gender tengligi nuqtai nazaridan yondashuvni shakllantirish yangi nazariya paydo bo'lishiga qaraganda muhimroq ahamiyatga ega. Bu o'z mohiyatiga ko'ra yangi nazariya bo'lib, uni tan olish ba'zan insoniy qadriyatlar o'zgarishi, ko'plab odatdagi tasavvurlar va "haqiqatlar"ning qayta ko'rib chiqilishini anglatadi, bu esa ko'pchilik uchun birmuncha og'riqli kechadi[10, b.6-13].

Xulosa. Ma'lumki, G'arbda gender mazmuni nafaqat jinsiylikka, balki ongli yoki ongsiz ravishda tengsiz munosabatlar asosiga qurilgan mafkura va institutlarga qarshi qaratilgan edi. Shu bois, eng avvalo, gender nazariyalari ta'lim amaliyotlari, bilish va ta'lim jarayonini tanqid qilish shaklida namoyon bo'lgan va jamiyatdagi mavjud siyosiy nuqtai nazarni ifodalagan. Bugungi kunga kelib, hech qanday boshqa tadqiqot va ta'lim strategiyalari Amerika va Yevropadagi akademik ta'lim tuzilmalarining o'zgarishiga bu qadar kuchli ta'sir ko'rsata olmaganligi tan olingan.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, gender inson jinsining ijtimoiy-madaniy jihatini ifoda etuvchi tushuncha. U inson hulq-atvorining sotsial o'ziga xosligini ifoda etib, amaliyot yordamida ijtimoiy jins sifatida shakllanadi. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xatti-harakatlarning meyoriy tizimi vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўразалиев Г. Гендер ва аёллар ҳуқуқий маданияти. – Т., 2009.
2. Холматова М. Жамятда аёлларнинг ўрни (тарихий-фалсафий таҳлил). /Экология ва аёл. Фарғона. 2001.
3. Социологический энциклопедический словарь. – М.: Инфра-Норма, 1998.
4. Брайсон В. Политическая теория феминизма. – М.: Идея-Пресс, 2001.
5. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-жилд. – Т.: “Шарк”, 2000.
6. Всемирный доклад о человеческом развитии. – Нью-Йорк, 2000.
7. Женщина мира: Тенденции и статистика ООН. – Нью-Йорк. 1995.
8. Alimammedova N. Globallashuv sharoitida O'zbekistonning gender muammolari. – Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. 1-maxsus son. – Т., 2021.
9. Ахмедшина Ф. Оила ва гендер тенглиги // Репродуктив маданият ва маънавият муаммолари. Республика “Оила” илмий-амалий маркази.
10. Пушкарева Н.Л. Историческая феминология и гендерный подход в исторических исследованиях. В кн.: Гендерные проблемы в этнографии. – М.: РАН, 1998. – С.6-13.